

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIK YUKLARINI TASHISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI VA UNING YAXSHILASH USULLARI

Sulaymonov Nazar Normurod o'g'li
Toshkent davlat transport universtiteti

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekistonda mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish va tashish bilan bog'liq jarayonlarni yaxshilash bo'yicha bir qator tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, export va import salohiyati, sifat ko'rsatkichlari.*

THE CURRENT STATE OF TRANSPORTATION OF AGRICULTURAL GOODS IN UZBEKISTAN AND WAYS TO IMPROVE IT

Abstract: *In the article, a number of recommendations have been developed to improve the processes related to the production, transportation and transportation of agricultural products in Uzbekistan.*

Key words: *Agricultural infrastructure, export and import potential, quality indicators.*

So'nggi 20 yil ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish yiliga o'rtacha 6-7 foizga o'sib bormoqda. O'zbekiston o'zining asosiy transport aholisi ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmay, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiladi va bu borada katta imkoniyatlarga ega. O'zbekistonda yiliga 19 million tonnadan ortiq meva-sabzavot yetishtiriladi, shundan 700 ming tonnaga yaqini eksport qilinadi. Ayni paytda respublikamizda mahalliy va sifatli meva-sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlangan 160 mingdan ortiq fermer xo'jaliklarining tashqi bozorlari faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikada jami omborxonalar hajmi 975 ming tonna mahsulot, jumladan, 502 ming tonnalik zamonaviy muzlatgichlar. Bu aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy turlari va eksporti bilan uzluksiz ta'minlashga xizmat qilmoqda. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi jadal rivojlanib, ayni paytda qishloq xo'jaligini transport logistikasi bilan bog'lash, o'zaro agrokompaniyakar o'rtasida hamkorlik kengaymoqda, tarmoq eksport salohiyati yuksalishini ta'minlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Meva-sabzavotlarning eksport geografiyasi va hajmi oshib, 92 ta mamlakatga 2,4 mlrd dollarlik 119 xil turdagi 5,5 mln. tona mahsulotlar eksport qilindi. 24 ta yangi to'lov quvvati yuqori bo'lgan Norvegiya, Shvetsiya, Shveysariya, Kipr, Buyuk Britaniya, Lyuksemburg, Avstraliya, Quvayt, Ummon kabi davlatlarga meva-sabzavotlar eksporti yo'lga qo'yildi. Xususan, 2020 yilda pandemiya sharoitiga qaramasdan qiymati 1 mlrd dollardan (2018 yilga nisbatan 2 barobar ko'p) ziyod 1,5 mln.tonna (187%) qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilindi. Qishloq xo'jaligida transport vositalaridan foydalanish xalq xo'jaligining

boshqa sohalariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari keng hududda yetishtirilishi tufayli ularni tashish bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning mavsumiyligi tufayli yuk tashishni yil mobaynida bir me'yorda amalga oshirib bo'lmaydi. Ayrim hollarda katta miqdordagi yuklarni qisqa vaqt ichida tashish zarurati paydo bo'ladi;
- turli xil transport vositalari talab etiladi;
- tashiladigan yuklar turi, hajmi, xususiyatiga ko'ra har xildir;
- yuk tashish masofani har xil bo'ladi;
- transport vositalari shirkat xo'jaliklariga kam boradi. Qishloq xo'jaligida transport vositalaridan foydalanishning bu xususiyatlari qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxida transport xarajatlari miqdorining oshishiga olib keladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifat ko'rsatkichlariga ko'ra asosan 3 guruhga bo'linadi:
 - Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha foydalanishi lozim bo'lgan soha talabiga to'liq javob beradigan mahsulotlar;
 - Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha foydalanishi lozim bo'lgan soha talabiga to'liq javob beradigan, ammo boshqa sohada foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlar;

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2021-2022 yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari to'g'risida ma'lumot

№	Mahsulot turlari	O'lchov birligi	2021 yil yanvar-mart			2022 yil yanvar-mart		
			miqdori	mlrd. so'm	%	miqdori	mlrd. so'm	%
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	mlrd.so'm	x	29 375,1	103,1	x	33 474,3	102,8
1	O'rmon xo'jaligida xizmat ko'rsatish	mlrd.so'm	x	158,8	103,1	x	235,1	103,6
2	O'rmon xo'jaligi	mlrd.so'm	x	1 381,2	101,6	x	1 479,3	101,9
3	Baliq xo'jaligi (oqibgan baliq)	mlrd.so'm	15,7	255,9	106,3	16,2	293,4	102,1
4	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	mlrd.so'm	x	27 579,3	103,0	x	31 466,5	102,7
4.1	Dehqanchilik	mlrd.so'm	x	1 642,6	105,0	x	2 159,6	108,5
4.1.1.	Don va dukkakli don	mlrd.so'm	7,9		104,8	8,1		106,5
4.1.2.	Pasta	mlrd.so'm	3,4		110	2,9		108,2
4.1.3.	Sabzavotlar	mlrd.so'm	22,0	685,8	106,0	24,2	1 042,2	117,5
4.1.4.	Boshqa dehqanchilik mahsulotlari	mlrd.so'm	x	956,8	100,3	x	1 117,4	102,1
4.1.5.	Boshqa dehqanchilik mahsulotlari	mlrd.so'm	x	1 441,8	100,1	x	1 553,8	102,0

Bundan tashqari 2016-2021 yillarda jami 330,5 ming gektar past rentabelli paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, ushbu maydonlarda yuqori daromadli va eksportbop mahsulotlar yetishtirish yo'lga qo'yildi. Buning natijasida 2016-2021 yillarda sabzavot ishlab chiqarish hosili 103%, kartoshka - 114%, poliz ekinlari - 110%, dukkakli mahsulotlar - 3,6 barobar, moyli ekinlar - 240%, chorva ozuqasi - 191%, meva - 107,4% va uzum - 106%ga o'sdi. Bu ko'rsatkichlar asosan sifat bilan bog'liq bo'ladi.

TAVSIYALAR:

Qishloq xo'jaligida transport xizmatlaridan foydalanish bo'yicha quydagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Qishloq xo'jaligida transport unimli va samarali foydalanib biz mehnat unimdorilgini oshirishimiz bu esa bizga iqtisodiy tomandan foydali hisoblanadi.

2. Qishloq xo'jaligida transport xizmatlaridan foydalanishda hozirgi davrda yangi innovatsion texnika texnologiyalardan foydalanishni taqqozo etmoqda.

3. Qishloq xo'jalik transportlarining xorij tajribalarini o'rganish va amaliyotga joriy qilish.

4. Bizda ref konteyner va ref vagonlarning soni kamligi va ularni xizmat ko'rsatuvchi deponing ham mavjud emasligi muammosini iloji boricha hal qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.K.Qo'shnazarov "Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash" Toshkent, Mehnat 1985.

2. O'zbekiston Respublika Prezidentining Oliy majlisga murojaatnomasi.
22 yanvar 2020, 11:52 Siyosat.

3. Uinslou Teylor "Do'kon boshqaruvi" 1903-yil 200 bet.

4. Uinslou Teylor "Ilmiy boshqaruv tamoyillari" 1911-yil 144 bet.

5. <http://lex.uz>